

**UO'K: 8.81-139**

**QISHLOQ XO'JALIGI MAXSULOTLARI TERMINO SISTEMASINING  
QIYOSIY TADQIQI (INGLIS VA O'ZBEK TILLARI ASOSIDA)**

**Usmonova Shoiraxon Ro'ziyevna**

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti*

*Xorijiy tillar kafedrası assistenti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi sohasiga oid atamalar ustida tadqiqotlar, ularning chet tillarida o'qitish jarayoni va ularni taqqoslash usuli, ularni o'rganish zarurligi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** qishloq xo'jaligi, tahlil, xorijiy tillarni o'qitish, atamalar, modellashtirish, terminologik tizim.

**STUDY OF LEXICAL FEATURES OF AGRICULTURAL TERMS**

**Usmonova Shoiraxon Ruziyevna**

*Assistant of the Department of Foreign Languages*

*Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies*

**Abstract.** This article discusses research on agricultural terms, the process of teaching them in foreign languages, the method of comparing them, and the need to study them.

**Key words:** agriculture, analysis, foreign language teaching, terms, modeling, terminological system.

**ИЗУЧЕНИЕ ЛЕКСИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ  
СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ТЕРМИНОВ**

**Усманова Шоираксон Рузиевна**

*Ассистент кафедры иностранных языков*

*Андижанский институт сельского хозяйства и агротехнологий*

**Аннотация.** В статье рассматриваются исследования сельскохозяйственной терминологии, их обучения иностранным языкам и способы их сравнения, необходимость их изучения.

**Ключевые слова:** сельское хозяйство, анализ, обучение иностранным языкам, термины, моделирование, терминологическая система.

Bugungi kunda yurtimizda kadrlarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan yaxlit ta'lim jarayoni mavjud bo'lib, bunda "O'zbekistondagi ta'lim tizimini jahon miqyosidagi darajaga olib chiqib, talabalar va o'quvchilarning turli kasblardagi mahoratlari va shu kasb bo'yicha egallagan zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ularni zamonaviy ta'lim tizimi metodlari asosida o'qitish amalga oshirilib kelmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili fanini o'qitish jarayonida turli xil kasb-hunarga oid atamalarni fanga olib kirish a shu bilan birgalikda ularni ta'lim jarayonida qo'llash bo'yicha terminologiya fani tilshunoslikning yangi yo'nalishi sifatida madaniy tavsifda qo'llanilyapti. Bu borada bir qator qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilinib, ular soha rivoji uchun huquqiy asos vazifasini bajarib kelmoqda. Jumladan, 2022-yil 19-yanvarda mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatishni ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish va sohani rivojlantirish uchun tizimli ishlarni tashkil etish, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, buning uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror qabul qilinishi ham soha rivojga xizmat qilmoqda. Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltirayotgan keng tamoqlardan biri – qishloq xo'jaligi sohasidir. O'zbekiston hozirgi kunda dunyo miqyosida yengil sanoat sohasida ulkan salohiyatga ega bo'lan davlat hisoblanadi.

Ingliz va o'zbek tillarida qishloq xo'jalik sohasiga oid terminlarning chog'ishtirma tahliliga bag'ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning tilshunoslik sohasida qo'llaniladigan analiz, sintez, qiyosiy tahlil kabi br qator metod va usullardan samarali foydalanildi.

Terminlarning standartligini ta'minlash va modellashtirish, shuningdek, tarjima jarayonida ularning moddiy ko'rinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa

ilmiy terminologiya, terminografiya taraqqiyoti, terminologik korpus, terminologik ma'lumot bazalarini yaratishning asosiy shartidir. Terminshunos olim R.Doniyorov terminologik sistemani guruhlariga bo'lib o'rganishning imkoniyatlari xususida ta'kidlaganidek, bu jarayon, birinchidan, shu sistemaning umumtermin boyligi haqida tasavvur hosil qiladi; ikkinchidan, bu sistemaning so'z yasash imkoniyatlari haqida ma'lumot beradi; uchinchidan, sistemaning har qaysi mavzu guruhidagi so'z yasash modeli qanday ekanligini aniqlab beradi.

Qishloq xo'jaligi sohasiga oid atamalarni strukturasi ko'ra tasniflashda, ular o'rtasida qo'shma atama va iboralar ko'plab tashkil etishining guvohi bo'ldik. Ma'lumki, qo'shma terminlar ilmiy-texnikaviy terminologiya tizimida eng dolzarb va munozarali masala bo'lib, tilshunoslarning qator ishlarida qo'shma terminlar umumiste'mol tildagi qo'shma so'zlarga qiyoslangan holda paydo bo'ladi, degan fikr ustuvor hisoblanadi.

Ingliz tilida ta'lim sohasiga oid qo'shma terminlarning strukturaviy-semantik tarkibini quyidagicha tasniflashni o'rinli deb bildik:

1. Qishloq xo'jaligi sohasiga oid qo'shma atamalar ma'nosini ularning tarkibidagi aniqlovchi komponentlarning ma'nosidan anglash mumkin. Masalan: slaughterhouse-qushxona, topsoil-ustki tuproq. Bunday atamalarni ular komponentlarining ma'nosidan aniqlab bo'lmaydi, sababi ularning orasida semantik aloqani ko'rmaymiz, ularning ma'nosini faqat kontekst orqali tushunib olish mumkin. Masalan: *windbreak* bu kabi ta'limiy atamalar motivlashmagan va ularning ma'nosini komponentlaridan aniqlab bo'lmaydi.

Ingliz tilida oddiy atamalar juda ko'p uchraydi. Bilamizki, sodda terminlar bir komponentdan iborat bo'ladi va ular tarkibida hech qanday qo'shimcha olmaydigan terminlar mavjuddir: O'zbek tilida qishloq xo'jaligi sohasiga oid terminologik birikmalar tuzilish jihatiga ko'ra tasniflanganda, quyidagi turlarga ajratiladi:

- qishloq xo'jaligi sohasiga oid sodda terminlar;

- qishloq xo'jaligi sohasiga oid yasama terminlar;
- qishloq xo'jaligi sohasiga oid qo'shma terminlar;
- 4 qishloq xo'jaligi sohasiga oid juft terminlar;
- qishloq xo'jaligi sohasiga oid murakkab birikmali terminlar.

1. Qishloq xo'jaligi sohasiga oid o'zbek tilidagi soda sodda terminlar: hosil, paxta, tola, barg;

2. Qishloq xo'jaligi sohasiga oid yasama terminlar: pillakor, urug'chi, payvandchi;

3. Qishloq xo'jaligi sohasiga oid qo'shma terminlar: agroiqlim, asalari, ayiqmurut, qoramol, qushxona, agrosanoat.

4. Qishloq xo'jaligi sohasiga oid juft terminlar: po'choq gul, asov ot, bog' malhami;

5. Qishloq xo'jaligi sohasiga oid murakkab birikmali atamalar: danakli meva daraxtlari, daraxtlarga shakl berish, daryo oqimini tartibga solish, dag'al tukli pechak, dag'al junli echkilar, dorivor o'simlik xomashyosi tozaligi, dehqonchilikning ekstensiv sistemasi, don-dukakli ekinlar, doimiy sug'orish shoxobchalari, genetik himoya usuli;

O'zbek tilida qishloq xo'jaligi oid terminlarning asosiy qismini ingliz tilidan o'zlashgan terminlar va ushbu terminlarning tarkibidan hosil bo'lgan ekvivalent atamalar tashkil etishiga guvoh bo'ldik. Masalan: fiziologiya, fitopotologiya, adaptatsiya, absess, agronomiya.

Terminologik birikma bir nechta komponentdan iborat bo'lib, ular sinonimlarga almashishlari mumkin.

Ingliz va o'zbek tillarida qishloq xo'jaligiga oid yasama terminlar keng qo'llanilib kelinmoqda. Ayni paytda, terminshunos olimlar va mutaxassislarining

izlanishlari tobora ortib, bu sohaning integratsiyalashuv jarayonlari bo'yicha ilmiy oqimining kelib chiqishiga asos bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, Ingliz tili qishloq xo'jaligi sohasi terminologiyasidan farqli ravishda o'zbek tilida ham olib borilishi lozim bo'lgan tadqiqot ishlari hali oldinda va shu bilan birgalikda, ingliz tili fanini o'qitish jarayonida yengil sanoat sohasiga oid atamalarni qo'llash va ularni o'rganish jarayonida talabalarni intellektual-madaniy rivojlantirish va ularni ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi sohasida jahon miqyosidagi yetuk kadrlar qilib tayyorlash hozirgi davrning asosiy vazifasidan biri hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullayeva, N. (2021). Thematic classification of names of fruit trees in the aspect of intercultural communication (on the material of the Uzbek, Tajik and English languages).
2. Абдуллаева, Н. Р. (2024). Пословицы И Поговорки О Растениях В Сопоставляемых Языках. Open Herald: Periodical of Methodical Research, 2(1), 4-7.
3. Акманова О.С. Dictionary of linguistic terms. Moscow: Sov. encyclopedia, 1966.
4. To'xliiev B., Shamsieva M., Ziyodova T. Methods of transformation of the Uzbek language. Tutorial. TSPU. 2009. (in Uzbek). - B.19.
5. To'xliiev B., Shamsieva M., Ziyodova T. Methods of transformation of the Uzbek language. Tutorial. TSPU. 2009. (in Uzbek). - B.86.
6. Qishloq xo'jaligiga oid atamalarning izohli lug'ati- Toshkent: "O'zbekiston", 2023 - B, 556.
7. Xamidov, M. (2023). On some similar and different aspects of proverbs and subjects. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 15, 66–68.

8. Larsen-Freeman, D. Chaos / complexity science and second language acquisition. *Applied Linguistics*, 18 (2), 139–157.